MA’LUMOTNOMA

Mazkur ma’lumotnoma Sho‘rlanish sharoitida Biodehqonchilik xalqaro tashkiloti (ICBA) bilan hamkorlikda "Qoraqalpog‘istonda yerlari degradatsiyaga uchragan hududlarda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish" loyihasi doirasida yetishtirilgan istiqbolli va stressga chidamli ekin navlari urug‘larini Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida fermer xo‘jaliklari hamda boshqa qishloq xo‘jaligi subyektlariga tarqatish ishlari to‘g‘risida ma’lumot berish maqsadida tayyorlandi.

Urug‘larni ko‘paytirish va tarqatish ishlari qishloq xo‘jaligida barqaror ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, degradatsiyaga uchragan yerlardan samarali foydalanish hamda fermer xo‘jaliklarining zamonaviy va chidamli ekin navlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Quyida loyiha doirasida yetishtirilgan urug‘lik ekin navlari, ularning miqdori va qiymat ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar keltiriladi.

Urug‘lik ekin nomi	Jami yetishtirilgan urug‘, kg	1 kg narxi, so‘m	Jami qiymati, so‘m
Sorghum S-35 (Bicolor S-35)	10071	4 000	40 284 000
Pearl millet IP 8418	5122	5 200	26 634 400
Foxtail millet	4234	23 500	99 499 000
Cowpea IP 9643	1481	9 000	13 329 000
JAMI	**20908**		179 746 400

Tarqatish bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Chimboy, Xo‘jayli va Nukus tumanlarida 3483 kg; Mo‘ynoq tumanida 236 nafar ishtirokchi bilan seminar-trening; Qo‘ng‘irot, Qonliko‘l, Shumanay, Taxtako‘pir, Ellikqal’a, Beruniy, To‘rtko‘l va Amudaryo tumanlarida 12735 kg; Taxiatosh, Bo‘zatov va Qorao‘zak tumanlarida 4690 kg urug‘ tarqatilgan.

Jami tarqatilgan urug‘—20908 kg.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi